

**Berdiyev Doston Abduvoitovich  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
San'atshunoslik fakulteti  
Tasviriy san'at va dizayn kafedrasи o'qituvchisi**

---

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BADIY STUDIYALARINI  
TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalarida klaster tizimi asosida badiiy studiyalarni tashkil etishning ijodiy ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, Chirchiq davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan "Art-studio" ijodiy markazi faoliyati va uning vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Estetik did, kognitiv, potensial, artpedagogika, klaster.

---

Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida joriy etilayotgan klaster tizimining afzal jihatlaridan biri, pedagog-talaba-o'quvchi, ijodkor rassomlar-havaskorlar-iqtidorli bolalar tizimida amalga oshiriladi. Pedagogika oliy ta'lif muassasalaridagi tasviriy san'at yo'naliishlari, Badiiy akademija, umumiy o'rta talim maktablari, musiqa va san'at maktablari bilan bitta tizimdag'i hamkor tashkilotlardir. Ushbu tizimda umumiy qo'yilgan katta maqsadga qarab professor-o'qituvchi, pedagog-psixolog, mahoratl ijdor rassom, talaba va o'quvchilar birgalikda ish olib borishlari va ijodiy muhitda muloqot qilishlari uchun klasterga asoslangan san'at studiyalariga talab paydo bo'ladi. Tasviriy sanatga yo'naltirilgan san'at studiyalari talabalarning ijodiy potensialini oshirish va pedagogik mahoratini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "San'atshunoslik" fakulteti qoshida tashkil etilgan "Art studio" ijodiy markazida san'atga ishtiyoqmand katta-kichik aholi, ish bilan band bo'limgan yoshlar va hattoki nafaqat yoshidagilarni ham o'ziga jalb qilmoqda. Art-studiyada tasviriy san'atning turli sohalarida o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan turli kurslar va mahorat darslari tashkil etiladi.

Markazda nafaqat tasviriy san'at sohasida talabalarga yaxshi nazariy bilim va kuchli amaliy ko'nikmalarni beradi, balkim, kompyuter grafikasi, libos dizayni yo'naliishlari bilan san'atga qiziquvchilarni ijodkorlikka, muktab o'quvchilarini esa atrof borliqqa nisbatan kognitiv qiziqishni uyg'otadi. Ularga hayotning barcha sohalarida muammolarni hal qilishga ijodiy yondashuvni o'rgatadi.

Ta'lif sohasida badiiy ta'lif talabalarning madaniy va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Keling, umuman olganda badiiy studiyalarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqaylik:

- O'zbekistonda ta'lifning milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va uni tashkil etish;
- ta'lifda madaniyat va san'atning ahamiyatini salmoqli darajada ko'tarish;
- talaba-yoshlarning badiiy-ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- madaniyat va san'at sohasida badiiy ta'lif muassasalarining o'ziga xos tizimini joriy etish;
- talabalarning ijtimoiy hayotida estetik did va qarashlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- san'at va madaniyat sohasida kasbiy faoliyatni yanada jadallashtirish va bu uchun ijodiy kadrlarni kashf etish;
- san'at sohasidagi kasbiy ta'lif ko'nikmalarini, ustoz-shogirda an'analari, milliy qadriyatlarni saqlagan holda uni rivojlanishiga hissa qo'shish;
- artpedagogikani tashkil etish;

- talabalarni mahalliy va xorijiy badiiy madaniy qadriyatlar bilan tanitish. Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan san’at studiyasi ham talabalarning ijodkorlik ko‘nikmalarini, san’at haqidagi kengroq tushunchalarini rivojlantirishga hamda amaliyotga joriy etishga yordam beradi, shuningdek, ularning ma’naviy tajribasini boyitishga hissa qo’shadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “San’atshunoslik” fakulteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasida tashkil etilgan “Art studio” ijodiy markazi faoliyatini yuqoridagilarning yechimi sifatida qarash mumkin. Ushbu studiyaning nizomi va dasturlari ishlab chiqilgan. Bu faoliyat “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasidagi “Talaba talabaga - ustoz, talaba talabaga - shogird” tamoyiliga asoslangan “O’rgatib, o’rganamiz” loyihasi asosida amalga oshirib kelinmoqda. “O’rgatib, o’rganamiz” loyihasining asosiy maqsadi talaba-yoshlarni ta’lim-tarbiya jarayonida bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini oshirish, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo’naltiradi. Ushbu markaz talabalardagi pedagogik-kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy mahoratini kuchaytirish, san’atga qiziqishi bo’lgan yoshlar va boshqa talabgorlarning bo’sh vaqtini mazmunli va sarmoyali o’tkazish, o’z iqtidorini kashf etish, o’zlarining noyob san’at asarlarini yaratishda ko‘maklashish maqsadida yaratilgan. Bu sohada tajribaga ega bo’lgan xorijiy mutaxassislar ham har bir inson o’zining oldingi olgan tajribasi yoki bor mahoratidan qat’iy nazar, o’zining noyob durdona va qadrli asarini yaratishi mumkinligining tasdig’ini ko‘rshimiz mumkin.

Bu maqsadga kengroq olib qaraydigan bo‘lsak u quyidagilardan iborat:

- talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish;
- o‘qituvchi-talaba-o‘quvchi tizimida “o‘zaro ta’sir kuchi”ni paydo qilish mexanizmini yaratish;
- ijodiy fikrlash, muammolarni aniqlash, uning eng optimal yechimlarini topishga o’rgatish;
- talabalardagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llay olish mexanizmini ishlab chiqish;
- yoshlarning qobiliyati va iste’dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to‘liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal eta oladigan yuksak ma’naviyatli, global fikrlaydigan, global mutasaddilik va kasbiy mahorati shakllangan oliy ma’lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ijodkor iste’dodli yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish va yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo’llab-quvvatlashdir.

“Art studio” ijodiy markazining ham o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari mavjud:

- milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan kasb-hunarga ega bo‘lish, yoshlarni estetik tarbiyalashga qaratilgan keng ko‘lamli amaliy-ijodiy ishlarni yuritish;
- yoshlarni hayotga maqsad va ishonch bilan yashashga tayyorlash, ularni eng yuksak qadriyat sifatida vaqtini qadrlash va undan samarali foydalanishga o’rgatish; - yoshlarning qobiliyati, istedodini rivojlantirish;
- yoshlar taraqqiyotida manaviyat olamining beqiyos ahamiyatini singdirish;
- manaviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida tushunchalar berish;

- yoshlardagi loqaydlik va befarqlik, dangasalik kabi illatlardan xalos etish;
- yoshlarda barcha turdagи salbiy ma’naviy xurujlarga qarshi kurashuvchanlik ruhini yaratish va rivojlantirish;
- yoshlar orasida tashabbuskorlik, ilmiy-ijodiy fazilatlarni kashf etish, boyitish hamda to‘plagan boy badiiy-ijodiy bilimlarni mustahkamlash;
- yoshlarning san’atga bo‘lgan mehr-muhabbatini yanada oshirish;
- kasbiy jihatdan mahoratga ega ijodkor kadrlar tayyorlash;
- yoshlardagi ijodiy potensialni oshirish;
- yoshlardagi bo‘sh vaqtlarni maqsadli va mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- markazda ijodiy-innovatsion muhitni yaratish va ushbu jarayonda faol qatnashish;
- akademik rangtasvir, badiiy kulolchilik, kompyuter grafikasi va chizmachilik yo‘nalishlariga ega “Art studio” ijodiy markazida san’atning turli sohalari orqali ishtirokchilarining badiiy mahoratini va ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish;
- ishtirokchilarni san’atdagi turli badiiy uslub va texnikalar bilan tanishtirish.
- ishtirokchilarga o‘zlarining badiiy o‘ziga xosligini va o‘zini namoyon qilishlariga yordam berish;
- zamonaviy san’at bilan shug‘ullanishga undash kabilardan iborat.

Klaster yondashuviga asoslangan mana shunday faoliyat orqali talabalar mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, notanish vaziyatlarda noodatiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi. Talaba o‘z bilganlarini boshqalarga o‘rgatish orqali o‘z bilimlarini yanada kuchaytiradi, yangi ko‘nikmalar hosil qiladi.

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- talabalar tanlagan kasbiy faoliyati va uning ma’suliysi haqida tasavvurini shakllantirish, mustaqil hamda ijodiy fikrlashga o‘rgatish;
- tasviriy san’at ta’limi jarayonlarida mavjud muammolarni aniqlash, tahlil qilish va tasniflashni o‘rganish;
- talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish;
- talabalar rahbarlik qiladigan to‘garak va mini-to‘garaklar faoliyatini jadallashtirish;
- klaster hamkorligi doirasida maktabda talabalar, universitetda o‘quvchilarning ijodiy ko‘rgazmalarini uyushtirish, ijodiy festival va tanlovlар o‘tkazish.

Buning natijasida esa o'zaro hamkorlikka asoslangan klaster tizimda talabalarning o'z bilimlarini boshqalarga yetkazishga yo'naltirish orqali ulardagi tanlagan hunari va kasbiy faoliyatni mazmunini tushunib yetish, pedagog-rassomning ma'suliyati haqida tasavvurini shakllantirishga erishiladi. O'rgatish, tushuntirish jarayonidagi ba'zi qiyin vaziyatlarda talabalarning mustaqil ravishda kerakli kasbiy jumlalar, so'zlarni ishlatish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Amaliy ishni bajarib ko'rsatishda kerakli usullarni topish uchun ijodiy fikrlashga o'rganadi.

Turli san'at va boshqa yo'nalishlardagi talabalarni birlashtirgan mahorat darslarini tashkil etish va turli loyihalardagi jamoaviy ishtirokini ta'minlash tasviriy san'atda klaster usulining amaliy tatbiq etilishiga olib keladi.

Klaster usulining tasviriy san'at sohasiga intergratsiyalashuvni talabalarning yanada samarali ta'lim olishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuv ta'limni shaxsiylashtirishga, fanlar ichida va fanlararo hamkorlikni rag'batlantirishga hamda o'quv jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Klaster usuli orqali integratsiyalash tasviriy san'at ta'limidagi fanlar uzviyligi va uzluksizligi, ta'lim sifatini oshirishga oid muammolarni aniqlash, birgalikda tahlil qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Har bir muammoning kelib chiqish sabablari tasniflanadi, profesor-o'qituvchilar, talabalar va ta'lim jarayoni subyektlari hamkorligida ushbu muammolar yechimiga oid qarorlar qabul qilinadi. Asosiysi, mana shunday yondashuv orqali talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiriladi.

Universitetda allaqachon brendga aylangan "Talaba – talabaga ustoz, talaba- talabaga shogird" tamoyili asosida talabalar rahbarlik qiladigan to'garak va mini-to'garaklar tashkil etish yana bir klaster usullaridan biridir. Bunda iqtidorli talabalar ijodiy imkoniyatlaridan foydalanib, o'zida mavjud bilimlarini boshqalarga o'rgatish orqali o'zlarida ham pedagogik kasbiy ko'nikmalari shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tasviriy san'at yo'nalishida har xil ijodiy tanlovlari, boshqa yo'nalishlardagi talabalarni birlashtirgan fanlararo innovatsion loyihalar, mahorat darslarini tashkil etish va turli loyihalardagi jamoaviy ishtirokini ta'minlash tasviriy san'atda klaster usulining amaliy tatbiq etilishiga olib keladi. Umumta'lim maktablarida tasviriy va amaliy san'at va dizayn sohasida talabalarning ijodiy ko'rgazmalarini, mahorat darslarini tashkil etish klaster hamkorligi uchun yana bir imkoniyati yaratadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning tasviriy san'at va pedagogika sohasiga qiziqishlarini oshirish, kasbga yo'naltirish uchun juda muhim. Shuningdek, universitetda o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish, ijodiy tanlovlari o'tkazish talabalarni kelajakdagi kasblariga yanada yaqinlashtiradi. O'quvchilar bilan ishlash talabalardagi universitetda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinash, mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchilarning ijodiy ishlarini to'g'ri va haqqoniy baholash malakalarini oshiradi. Shu boisdan "Art studio" ijod markazi ham ijodiy ham ilmiy amaliy markaz desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустаҳкамловчи омил //“Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами./ II том. Чирчик 2019. 443- 444 б.
2. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690

3. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
4. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўгаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. *PEDAGOGS Jurnali*, 31(1), 142–148.
6. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.
7. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>
8. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
9. Бердиев, Д. (2023). Кластер ёндашувига асосланган ўқитувчиликнинг талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги аҳамияти. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, 1(01). Retrieved from <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/93>
10. Abduvoitovich, B. D. (2024). Tasviriy san'at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish. *PEDAGOGS*, 51(1), 112-114.